

**DONNI QAYTA ISHLOVCHI KORHONALARDA XOMASHYO SIFATIDA ISHLATILADIGAN
DONLARNI SIFAT KO'RSATKICHLARI****Bektoshev Oybek Qosimjon o'g'li***Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti.**Email:bektoshev.oybek@mail.ru***Bektosheva Shohsanam Ahrorjon qizi****Sultonova Dilshodaxon Qosimjon qizi**

Annotasiya: *Maqolada donni qayta ishlovchi, yorma holatiga olib keluvchi korhonalarga olib kelinadigan donning sifat ko'rsatkichlari va ularga qo'yiladigan talablarga g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Donni qayta ishlovchi korhonalarda sifatli yorma tayyorlash uchun qabul qilinayotgan donni sifat ko'rsatkichi muhim hisoblanadi. Donni qayta ishlovchi korxonalarida qabul qilingan donning namligi, has-cho'plari bilan ifloslanganligi, zararkunandalar bilan zararlanganligi, gul qobiqlari, hidi, mazzasi va rang ko'rsatkichlari aniqlanadi. U sifatli yorma bo'lishi uchun yirik, bir xil tarkibda bo'lishi mag'zining konsistensiyasi va boshqalar ta'sir etadi.*

Kalit so'zlar: *Don, don sifati, namligi, dag'alligi va dag'alligi, don hajmiga qo'yiladigan talablar.*

KIRISH

Insoniyat hayotida donning o'rni muhim hisoblanadi. Chunki insonlarning asosiy oziq ovqat maxsulotlari hisoblangan non va non maxsulotlari turli yormalar donni tayyorlanadi. Maqolada donni qayta ishlovchi korxonalariga yetkazib beriladigan donning sifat ko'rsatkichlari va unga qo'yiladigan talablar haqida ma'lumot berilgan. Donni qayta ishlash korxonalarida yuqori sifatli don tayyorlash uchun olingan donning sifat ko'rsatkichi muhim ahamiyatga ega. Donni qayta ishlash korxonalarida hosil bo'lgan donning namligi, begona o'tlar bilan ifloslanishi, zararkunandalar bilan zararlanishi, gul po'stlog'i, hidi, ta'mi va rang ko'rsatkichlari aniqlanadi. Yuqori sifatli don bo'lishi uchun u katta, bir xil tarkibga ega, yadro konsistensiyasi va boshqalarga ega bo'lishi kerak.

Yormabop donlarga qo'yiladigan talablar.

Yormabop donlardan yorma ishlab chiqarishda talab etiladigan ko'rsatkichlarni ko'rib chiqamiz. Donning yangiligi yorma olish uchun ishlatiladigan don yangi, turli yoqimsiz hidlar va (mog'or, bo'rsigan, va turli dinga xos bo'lmagan) achigan va achiqimtil mazzaga ega bo'lmasligi kerak, qobiq va mag'zlari qorayib ketmagan bo'lishi kerak. Don massasi tarkibida turli sifatsiz donlar bo'lgan (nimjon, o'sib yetilmagan buzilgan, zararkunandalar bilan zararlangan) bo'lishligi donning xas-choplar bilan ifloslanganligi deyiladi. Yormabop donlarda gul qobiqlari miqdori Yormabop donlarning sifati qancha yuqori bo'lsa, ular

tarkibidagi gul qobig'i miqdori shuncha past boladi. Gul qobigi miqdorining donlar bo'yicha o'zgarishi turlicha bolib, u doni navi, yetishtirilgan rayoni va ob-havoga bog'liq.

Donning gul qobiqlariga ham chegara miqdori bo'lishi kerak %

1-jadval

Sholi	17-24	O'rtacha	19,0
Sulida	20-40	O'rtacha	26,0
Arpa	8-15	O'rtacha	11,0
Tariq	16-25	O'rtacha	18,0

Donning gul qobiqligi- yorma chiqishda muhim ko'rsatkich bo'lib, u mag'izning og'irligini aniqlash imkonini beradi. Standartga ko'ra grechixa va sholi donlarini mag'izining miqdoriga asosanib uchta sinfga bo'lish ko'rsatilgan.

Donni qayta ishlovchi zavodlarga ishlov berish uchun yuboriladigan donning sifat ko'rsatkichlari

2-jadval

Don ning nomlari	namligi	Xas-choplarining miqdori	Don chiqindilarining miqdori	Mag'izning miqdori
Sholi	15,5% dan ko'p bo'lmasin.	2.0% shu jumladan qurish bo'lmasin, kukol 15,0% dan bo'lmasin, minerallar 0,2% dan ko'p bo'lmasin don 0,5% dan ko'p bo'lmasin	2,0% dan ko'p bo'lmasin, don massida sarg'aygan endosperm 0,5 %dan ko'p bo'lmasin,yopishqoq sholi 2,0% dan ko'p bo'lmasin,qizil sholi2,0% dan ko'p bo'lmasin.	(3 sinf) 74% dan kam bo'lmasin, (2-sinf) 76% dan kam bo'lmasin (1-sinf) 79% dan kam bo'kmasin
Sulida	Quritgich qurilmalardan o'tgan don 15,5% dan ko'p bo'lmasin, u bo'lmagan holda 13,5%	2,5% dan ko'p bo'lmasin, shu jumladan minerallar 0,4% dan ko'p bo'lmasin; zararlangan 0,2 % dan ko'p bo'lmagin, kukol 0,2 %dan ko'p bo'lmasin	3 % dan ko'p bo'lmasin.	1,8x20 mm elakda saralangan 62,0% dan kam boimasi
Arpa	14,5 %	2,0% dan ko'p	3 % lan ko'p	

	dan ko'p bo'lmasin	bo'lmasin, shu jumladan buzilgan don 0,5% dan ko'p bo'lmasin, minerallar 0,2 % dan zararlangan don 0,2 % dan, kukol 0,3 % dan ko'p bo'lmasin.	bo'lmasin	
Tariq	quritgich uskunasidan o'tgan donning namligi 13,0 % dan ko'p bo'lmasin quritgich uskunasida bo'lmasa, 13,5%	3% dan ko'p bo'lmasin, shu jumladan mineral chiqindilar 0,2 % zararlangan donlar 0,20 % dan, ko'p; bo'lmasin, buzilgan donlar 0,5 % dan ko'p bo'lmasin	don chiqindilari 6 % dan ko'p bo'lmasin, shu jumladan mog'orlagan don 1% dan ko'p bo'lmasin	74,0% dank am b'lmasin
Bug'doy	14,5 % dan ko'p bo'lmasin	2,0% dan ko'p bo'lmasin, jumladan kukol 0,5% va boshqa zararli chiqindilar 0,2% dan ko'p bo'lmasin	5 % lan ko'p bo'lmasin	

Donning qiltanoqliligi.

Sholi, suli donlari gul qobiqlarining uchlari uzun bo'lib, qiltanoq hosil bo'ladi, u esa don massasining umumiy hajmini oshiradi va donning ajraluvchanligini hamda tozalash jarayonini qiyinlashtirib, qo'shimcha uskuna talab etiladi.

Dondagi qiltanoqlar maxsus uskuna yordamida olib tashlanadi, bu esa don tozalash jarayonining samarali o'tishini ta'minlaydi. Yorma donining bir xilligi. Donlarga qayta ishlov berish

jarayonining yaxshi sharoitda o'tishi uchun don massasining tipi, navi, tarkibining bir xil bo'lishi talab etiladi. Turli nav va turli tip donlarni aralashtirish mumkin emas.

Yorma donlarining yirikligi. Yirik donlarda, maydasiga nisbatan magiz miqdori ko'p bo'ladi. To'lapishgan yirik don donasining 1000 ogirligi mayda donnikiga nisbatan 1,5-2 marta ortiqroq boiadi. To'la pishgan yirik donlarni tozalash jarayonlari samarali boiib, mahsulotning «chiqish» miqdori yuqori, sifati esa yaxshilanadi. Yorma donlarining bir xillik

xususiyati. Don massasining yiriklik bo'yicha bir xil bo'lish xususiyati ular o'lchamlarining yaqin bo'lishiga sababdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda donning sifat ko'rsatkichlariga yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlar asos bo'ladi. Bundan tashqari donni qayta ishlovchi ko'rxonalarda texnologik jarayonning to'g'ri bajarilishi ham sifatli un va yorma masulotini olish va don maxsulotlarini qayta ishlash jarayonida sifat ko'rsatkichlarini buzilmasligini ta'minlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Donni saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi. S. Tursunov, Z. Muqimov, B. Norinboyev Toshkent "Ijod-Press" 2019 190-192 b
2. Г. Боушанс «Эффективность обработки и хранения зерна» М.: Колос, 1983.
3. Л.А. Трисвяский, И.С.ИМилов. "Товароведение зерна и продувов его переработке" М - "Колос", 1992й
4. М. Abdullaev., G. Zakladnoy «Don zaxiralari zararkunandalariva ularga karshi kurash profilaktik choralari» Т. «Shark» 200ly.
5. А.И.Стародубцева, В.С.Сергунов "ПракШкут по хранению зерна" Москва ВО "АгропротиздаГ 1987й
6. И.Т.Мерко. Технология шукогпольного, крупяного производс1ва. Москва В О "Агропротизда1;"1985й
7. Т.К. Копейкина.Е М Мельников П ракШ кут по тукатольно крупяногау и котбикортов ОМУ производ^ву М - "Колос", 1980.й